



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

MS  
2022





ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
**xalqaro ilmiy-metodik jurnal**

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
**международный научно-методический журнал**

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
**international scientific-methodical journal**

**maxsus son**  
**2022**

### Jurnal haqida

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g’risidagi Nizom” talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo‘yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

*«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал*

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

### About the magazine

*"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal*

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

**Muassislar:** "Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,  
Buxoro davlat pedagogika instituti

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi,  
11-uy

**Web-sayt:** [www.paresearchjournal.uz](http://www.paresearchjournal.uz)

**Bosh muharrir:**

Daminov Mirzohid Islomovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:**

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

## TAHRIR HAY'ATI:

*Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori,  
professor*

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Abdullahayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi  
Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina  
pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina  
pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari  
milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)*

*Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*To'xsanov Qahramon Rahimboevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Muhittinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor*

*To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Atabayeva Nargis Batirovsna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

*Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori(PhD), dotsent*

**MUNDARIJA**

Boboyeva Muyassar Norboyevna. Matematika fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish .....	6
Rasulov To'lqin Husenovich, Mamurov Boboxon Jo'rayevich. Matematika: oliv ta'lif va maktablar hamkorligining zamonaviy yo'nalishlari.....	13
Tabassum Saleem, Rasulov To'lqin Husenovich, Umarova Umida Umarovna. About the organization of distance education in universities of Uzbekistan and Pakistan .....	20
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich, Yaxyoyeva Sharofat Mirmuxsin qizi. Matematik masalalar va tenglamalar mavzusini o'qitish xususiyatlari .....	28
Latipov Hakimboy Mirzo o'g'li. Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanib kompleks sondan kvadrat ildiz chiqarish mavzusini o'qitish.....	34
Rashidov Anvarjon Sharipovich. Ko'pyoqlar va ularning sodda kesimlarini yasash mavzusini interfaol metodlar yordamida o'qitish .....	39
Jo'raqulova Farangis Murot qizi. Ikki to'g'ri chiziq va kesuvchi hosil qilgan burchaklar mavzusini o'qitishda interfaol metodlar.....	45
Sharipova Mubina Shodmonovna. Sodda irratsional tengsizliklarni yechish usullari .....	50
Ismoilova Dildora Erkinovna, Sharipova Mubina Shodmonovna. Algebraik kasrlarni ko'paytirish va bo'lish mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari .....	56
Rashidov Anvarjon Sharipovich, Latipov Hakimboy Mirzo o'g'li. Silindrning hajmi mavzusini o'qitishda interfaol metodlar .....	62
Бобоева Муяссар Норбоевна, Марданова Феруза Ядгаровна. "Чизиқли тенгламалар системаси" мавзусини ўқитища муаммоли таълим технологияси ва "зинама-зина" методини қўллаш .....	67
Xayitova Xilola G'afurovna, Sayliyeva Gulrux Rustam qizi. Funksianing o'sishi va kamayishi mavzusini o'qitishda interfaol metodlar .....	75
Xayitova Xilola G'afurovna. Tanlash usuli bilan kombinatorika masalalarni yechish metodikasi .....	81
Умарова Умидা Умаровна. Масофавий таълимда айrim elektron didaktik taъminot vositalari .....	86
Sayliyeva Gulrux Rustam qizi. Fazoda Dekart koordinatalar sistemasi mavzusini o'qitishda interfaol usullar .....	92
Ахмедов Олимжон Самадович. Эффективные аспекты применения информационных и коммуникационных технологий при обучении математики .....	98
Ismoilova Dildora Erkinovna, Bir noma'lumli tengsizliklar va uni o'qitish metodikasi .....	108
Сафар Ходжиев, Наргиза Жўраева. Некоторые указания и решением текстовые задачи связанные с работой .....	114
Xodjiyev Safar, Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna. Parametrli kvadrat tenglamalar va ularni yechish usullari .....	123
Raupova Mokhinur Haydar kizi. Benefits of computerized learning systems in mathematics .....	133
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich, Qurbonov G'ulomjon G'afurovich. Natural sonlarni qo'shish mavzusini o'qitishning afzalliklai .....	138
Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich. Uchburchak tengsizligi mavzusini interfaol usullar yordamida o'qitish metodikasi .....	145
Do'stova Shahlo Baxtiyorovna. O'nli kasrlarni qo'shish va ayirish mavzusini interfaol usullar va aktdan foydalanib o'tish .....	151
Avezov Alijon Xayrulloevich, Nuriddinova Nigina Zamon qizi. Chizg'ich va sirkul yordamida geometrik masalalarni yechishni o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar .....	161

**Xayitova Xilola G‘afurovna,**  
Buxoro davlat universiteti  
«Matematik analiz» kafedrasi o‘qituvchisi  
ORCID- 0000-0002-4613-6179  
**Sayliyeva Gulrux Rustam qizi,**  
Buxoro davlat universiteti  
«Matematik analiz» kafedrasi o‘qituvchisi  
ORCID - 0000-0003-1268-29-53

---

## FUNKSIYANING O‘SISHI VA KAMAYISHI MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLAR

---

**Annotatsiya:** Ta’limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o‘qitish tizimida o‘quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, o‘quvchilarini o‘quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Maqolada o‘quvchilarining guruh bo‘lib hamfikrlikda ishslash, topqirlilik va zukkolik kabi fazilatlarni shakllantirishda xizmat qiladigan interaktiv o‘yin tashkil etishga doir tavsiyalar keltirilgan. Darsda «Yashiringan so‘zni top» o‘yini, «Nuqtani baholang» o‘yini, Express test metodlaridan foydalanilishi ko‘rsatilgan. Shuningdek tashkil etilgan o‘yinlar orqali faol ishtirokchilarini qanday rag‘batlantirish to‘g‘risida ma‘lumotlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** «Yashiringan so‘zni top» o‘yini, «Nuqtani baholang» o‘yini, Express test, Funksiyaning o‘sishi va kamayishi, Funksiyaning aniqlanish sohasi.

### ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ ВОЗРАСТАНИЯ И УБЫВАНИЯ ФУНКЦИИ

**Хайитова Хилола Гафуровна,**

Преподаватель кафедры «Математического анализа»

Бухарского государственного университета

ORCID - 0000-0002-4613-6179

**Сайлиева Гулрух Рустам кизи,**

Преподаватель кафедры «Математического анализа»

Бухарского государственного университета

ORCID - 0000-0003-1268-29-53

**Аннотация:** Основная цель педагогических технологий в образовании состоит в том, чтобы в системе обучения ввести учащегося в центр процесса урока, отодвинуть учащихся от простого запоминания учебного материала, автоматического повторения, развивать их самостоятельную и творческую деятельность, сделать активными участниками урока. В статье приведены рекомендации по организации интерактивной игры, служащей для формирования таких качеств, как умение работать в команде, находчивость, сообразительность. Указаны использование игры «Найди скрытое слово», «оценки точку», экспресс-методы тестирования. Также предоставляется информация о том, как поощрять активных участников посредством организованных игр.

**Ключевые слова:** Игра «Найди скрытое слово», игра «оценки точку», Экспресс-тест, увеличение и уменьшение функции, область определения функции.

### INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE TOPIC OF FUNCTION INCREASE AND DECREASE

**Khayitova Khilola Gafurovna,**

Department of Mathematical Analysis

Bukhara State University

ORCID- 0000-0002-4613-6179

**Sayliyeva Gulrukhan Rustam qizi,**  
Department of Mathematical Analysis  
Bukhara State University  
ORCID - 0000-0003-1268-29-53

**Annotation.** The main goal of pedagogical technologies in education is to introduce the student into the center of the lesson process in the learning system, move students away from simple memorization of educational material, automatic repetition, develop their independent and creative activity, and make them active participants in the lesson. The article also provides recommendations on the organization of an interactive game that serves to form such qualities as the ability to work in a team, resourcefulness, quick wits. During the lesson, the games "Find the hidden word", "evaluate the point", express testing methods were used. Information is provided on how to encourage active participants through organized games.

**Key words.** Find the hidden word game, score the point game, Express test, function increase and decrease, function definition area.

## KIRISH

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, munosabatlar, xalq ta'lifi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar «Ta'lif to'g'risida»gi qonunda hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilganidek, har bir o'qituvchi oldiga ustuvor vazifa qo'yilmoqda. O'qituvchilarning metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasini uning pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz.

Ayni paytda zamonaviy ta'lifni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, o'quvchi tomonida o'quv predmeti puxta egallanishini ta'minlash, o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrash ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lif jarayonida tadbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayonida qo'llanilishi tushuniladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikrashiga muhit yaratishdir [1].

Ushbu maqolada umunta'lif maktebalarining Algebra kursidan ma'lum bo'lgan «Funksianing o'sishi va kamayishi» mavzusini o'qitish bo'yicha ayrim mulohazalar keltiriladi va uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

## ASOSIY QISM

Bizga maktab matematika kursidan yaxsh ma'lumki, «Funksianing o'sishi va kamayishi» «mavzusi» «Funksianing aniqlanish sohasi» «mavzusidan keyin keladigan mavzu bo'lib, o'quvchi funksiya tushunchasi, funksianing aniqlanish sohasi, funksiya grafigi va uni yasash tushunchalari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lsagina, funksianing o'sishi va kamayishi mavzusini o'zlashtirishda qiyinchilarga duch kelmaydi. Bunga yangi mavzu bayoniga o'tishdan oldin o'tilgan darsi takrorlash va mustahkamlash maqsadida

«Yashiringan so'zni top» o'yinidan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarga topilishi kerak bo'lgan kalit so'z harflarining soniga mos satrga ega jadval beriladi. Jadval 4 ustundan iborat bo'lib, unda savollarning tartib raqami, savollar, kalit so'z harflari va savollarning javoblari (javoblar aralash tarzda berilgan) bo'ladi. Doskada esa kalit so'zdagi harflar soniga mos sonlar bir satrda joylashib, o'quvchi jadvaldagи savolga mos javobni topganda uning oldidagi harfni doskadagi mos sonning pastki qismiga yozishi kerak.

### O'quvchilarga taqdim qilinadigan jadval:

#### 1-jadval

1	$y(x) = x^2 + 3x + 4$ formula berilgan, $y(1)$ ni toping	A	2
2	$y(x) = \frac{x+5}{x-2}$ formula berilgan, $y(1)$ toping.	F	8
3	$y(x) = \sqrt{x-1} + \sqrt{1-x}$ funksianing aniqlanish sohasiga nechta natural son kiradi?	I	6

4	$y(x)$ funksiya uchun x bu...	K	Erkli o'zgaruvchi
5	$y(x) = \frac{x+5}{x-2}$ formula berilgan, $y(x) = 8$ bo'lsa, x ni toping.	N	1
6	$y(x) = \sqrt[4]{6-x}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga mos eng katta son qaysi?	S	3
7	$y(x)$ funksiya uchun y bu...	U	-6
8	$y(x) = \frac{x^2+3}{x-2}$ funksiya qaysi nuqtada aniqlanmagan?	Y	Erksiz o'zgaruvchi

1	2	3	4	5	6	7	8

O'quvchilar o'z fikr-mulohazalarini erkin bildiradilar, misollarni ishlaydilar, javoblarini taqqoslaydilar va umumiy natijani belgilab, 2-jadvalni to'ldiradilar.

### O'quvchilarga taqdim qilingan jadvalning to'g'ri javoblar:


#### 2-jadval

1	$y(x) = x^2 + 3x + 4$ formula berilgan , $y(1)$ ni toping	F	8
2	$y(x) = \frac{x+5}{x-2}$ formula berilgan, $y(1)$ toping.	U	-6
3	$y(x) = \sqrt{x-1} + \sqrt{1-x}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga nechta natural son kiradi?	N	1
4	$y(x)$ funksiya uchun x bu...	K	Erkli o'zgaruvchi
5	$y(x) = \frac{x+5}{x-2}$ formula berilgan, $y(x) = 8$ bo'lsa, x ni toping.	S	3
6	$y(x) = \sqrt[4]{6-x}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga mos eng katta son qaysi?	I	6
7	$y(x)$ funksiya uchun y bu...	Y	Erksiz o'zgaruvchi
8	$y(x) = \frac{x^2+3}{x-2}$ funksiya qaysi nuqtada aniqlanmagan?	A	2

1	2	3	4	5	6	7	8
F	U	N	K	S	I	Y	A

O'qituvchi o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishiga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o'tishi mumkin.

Yangi mavzu bayoni quyidagicha taklif qilinadi.




Agar argumentning biror oraliqdan olingan katta qiyatiga funksiyaning katta qiyati mos kelsa, ya'ni shu oraliqqa tegishli istalgan  $x_1, x_2$  uchun  $x_2 > x_1$  tengsizlikdan  $y(x_2) > y(x_1)$  tengsizlik kelib chiqsa,  $y(x)$  funksiya shu oraliqda o'suvchi funksiya deyiladi.

Masalan,  $y = x$  funksiya sonlar o'qida o'suvchi funksiyaga misol bo'ladi.

Agar biror oraliqqa tegishli istalgan  $x_1, x_2$  uchun  $x_2 > x_1$  tengsizlikdan  $y(x_1) > y(x_2)$  tengsizlik kelib chiqsa,  $y(x)$  funksiya shu oraliqda kamayuvchi funksiya deyiladi.

Masalan,  $y = x^2$  funksiya  $x \leq 0$  oraliqda

kamayuvchi bo‘ladi.



$y = x^r$  darajali funksiyaning o‘sishi yoki kamayishi daraja ko‘rsatkichining ishorasiga bog‘liq.

Agar  $r > 0$  bo‘lsa, u holda  $y = x^r$  darajali funksiya  $x \geq 0$  oraliqda o‘sadi.

•  $x_2 > x_1 \geq 0$  bo‘lsin.  $x_2 > x_1$  tengsizlikni musbat r darajaga ko‘tarib,  $x_2^r > x_1^r$  ni, ya’ni  $y(x_2) > y(x_1)$  hosil qilamiz.

Agar  $r < 0$  bo‘lsa, u holda  $y = x^r$  darajali funksiya  $x > 0$  oraliqda kamayadi.

•  $x_2 > x_1 > 0$  bo‘lsin.  $x_2 > x_1$  tengsizlikni manfiy r darajaga ko‘tarib, chap va o‘ng qismlari musbat bo‘lgan tengsizliklarning xossasiga ko‘ra  $x_2^r < x_1^r$  ni, ya’ni  $y(x_2) < y(x_1)$  hosil qilamiz.


Yangi mavzuga oid ma’lumotlar berilgach, ularga asoslanib darslikda berilgan misollar tahlil qilinadi.

Yangi mavzuni mustahkamlashda «Nuqtani baholang» o‘yinidan foydalanishimiz mumkin. Bunda o‘quvchilarga funksiya grafigi berilgan bo‘ladi. O‘yinning sharti esa quyidagilardan iborat:

1) berilgan nuqta grafikka tegishli, grafikning ichida joylashgan yoki grafikning tashqi qismida joylashganini aniqlab keltirib qo‘yish;

2) berilgan nuqtalar funksiyaning o‘sish oralig‘ida yoki kamayish oralig‘ida joylashganini aniqlash;

O‘quvchilarga taqdim etiladigan grafik:



Nuqtalar : A=(2;-1) , B=(3;7) , C=(-1;1) , D=(0;8) , E=(-7;1) , F=(3;4) , G=(5;8) , H=(1;0) , I=(0;3) , J=(1,5; 3) .

Shu o'rinda mavzuni boshqa fanlarga bog'liqlik qismlaridan keltirib o'tish, mavzuga oid tarixiy ma'lumotlardan keltirish o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Funksiyaning dastlabki ta'riflari G.Leybnis(1646-1716) , I.Bernulli (1667-1748) , N.I.Lobachevskiy (1792-1856) asarlarida berilgan.

Funksiyaning hozirgi ta'rifini bilishmasa-da , qadimgi olimlar o'zgaruvchi miqdorlar orasida funksional bog'lanish bo'lshi lozimligini tushunishgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy ham o'z asarlarida funksiya tushunchasi va uning xossalaridan foydalangan. Abu RayhonBeruniy mashhur «Qonuni Ma'sudiyy» asarining 6-maqolasida argument va funksiyaning o'zgarish oraliqlari, funksiyaning ishoralari va eng katta, eng kichik qiymatlarini ta'riflaydi.

Mavzuga oid quyidagi testlardan dars yakunida o'quvchilar bilimini qisqa muddatda baholashda foydalanish mumkin.

#### **Mavzuga oid testlar:**

1. Quyidagi funksiyalardan qaysi biri haqiqiy sonlar to'plamida o'suvchi?  
A)  $y = -x$       B)  $y = x + 3$       C)  $y = x^2$
2. Quyidagi funksiyalardan qaysi biri haqiqiy sonlar to'plamida kamayuvchi?  
A)  $y = -x$       B)  $y = x + 3$       C)  $y = x^2$
3. Funksiyaning aniqlanish sohasini toping:  $y = \sqrt{-x^2 + 3x - 2}$   
A)  $1 \leq x \leq 2$       B)  $1 < x \leq 2$       C)  $x \geq 2, x \leq 1$
4. Sonlar o'qida ham o'suvchi , ham kamayuvchi bo'lgan funksiyani toping.  
A)  $y = -\sqrt{x}$       B)  $y = x + 3$       C)  $y = x^2$
5.  $y = x + \frac{1}{x}$  funksiya berilgan oraliqlardan qaysi birida faqat o'suvchi bo'ladi?  
A)  $(0;1)$       B)  $[0; \infty)$       C)  $[1; \infty)$

#### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI:**

[1] maqlolada matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilanish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqligi qayd qilingan. Matematik o'yinlar, rasmi topishmoqlar kundalik darslarga joziba bag'ishlashi haqida fikr yuritilgan. Didaktik o'yinlar darsda ishni individuallashtirish, har bir o'quvchining kuchiga mos topshiriq berish, uning qobiliyatlarini maksimal o'stirish imkoniyatini berishi qayd qilingan. O'yin orqali o'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbiq eta olishga tayyorlanishi haqida so'z yuritilgan.

[2] maqlolada umumta'lim maktablarida matematika fanining dasturini o'qitish, uning o'rganish obyekti, o'qitishning xususiyatlari, o'qitish umumiylar metodikasining qonun va qoidalaringan aniq mavzu materiallariga tadbiq qilish yo'llari, o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash haqida so'z yuritilgan.

[3] maqlolada boshlang'ich sinflarda matematika fanining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan o'qitishning xarakterli xususiyatlari va ularni har tomonlama kamol toptirish, uning ideallarini shakllantirish tarbiyaning eng muhim vazifasi etib belgilangani qayd etilgan. Uni hal etishda muktab tizimini yanada takomillashtirish, har bir o'quvchi shaxsini rivojlantirishda uning yetakchi rolini ta'minlash katta ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi.

[4] maqlolada ishga doir mantli masalalar va ular qanday turlarga bo'linishi, ularni yechish bosqichlari, bu kabi masalalarda uchraydigan asosiy qonuniyatlar haqida qisqacha tushunchalar keltirilgan. Ishga doir matnli arifmetik masalalarni yechishda qanday tasdiqlarga e'tibor berishimiz kerakligi haqida mulohazalarini umumlashtirib, mavzu bo'yicha masalalar yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Keltirilgan tasdiqlar va mulohazalar bilan yechilgan masalalar o'quvchilar hamda fanni mustaqil o'rganuvchilarga matnli masalalarni qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishga yordam berishi ta'kidlangan.

[5] ilmiy ishda matematik analiz, funksional analiz va matematik analizning tanlangan boblari fanlarining muhim bo'limlaridan biri bo'lgan «O'zgarishi chegaralangan funksiyalar»

bo‘limini o‘qitishga oid tavsiyalar keltirilgan. O‘zgarishi chegaralangan funksiya va to‘la variasiyaga oid ma’lumotlarni keltirilgan hamda to‘la variasiyani hisoblashning asosiy xossalari bayon qilingan. Talabalarning mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash imkonini beruvchi bir qator interfaol usullar va ularning qo‘llanilishi haqida fikr-mulohalar yuritilgan.

[6] maqolada funksional tenglamalarni yechishning bir nechta qulay usullari bayon qilingan. Funksional tenglamalarni yechish o‘quvchiga bir muncha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Maqolada funksional tenglamalrn yechishning sodda usullari yoki funksional tenglamani sodda ko‘rinishdagi tenglamaga olib kelish usullari bayon qilingan. Bir nechta misollar yechib ko‘rsatilgan. O‘quvchi mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar keltirilgan.

[7] O‘quv qo‘llanmada pedagogik texnologiya nazariyasining shakllanish va taraqqiyoti tarixi, uning mohiyati, texnologik yondashuv tamoyillari, o‘quv jarayonini loyihalash, xususiy fanlarni o‘qitish jarayoniga ta’lim texnologiyasini tadbiq etish, shuningdek, ta’lim texnologiyasi samaradorligini aniqlash va baholash kabi masalalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

[8] [www.buxdu.uz](https://uniwork.buxdu.uz) saytining <https://uniwork.buxdu.uz> platformasida ham funksiyaning o‘sishi va kamayishi mavzusini o‘qitishda interfaol metodlariga oid qo‘sishma ma’lumotlar berilgan.

## XULOSA

Maktab o‘quvchilariga Algebra kursining» Funksiyaning o‘sishi va kamayishi» mavzusini o‘qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma’lumotlardan foydalanish orqali darsning o‘tilgan mavzuni takrorlash va qisqacha tahlil qilib yakunlash, yangi mavzuni bayon qilish, yangi mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash qismlarini samarali tashkil etish mumkin. Umuman darsni yanada qiziqarli va samarali o‘tishini ta’minlash maqsadida ta’limning turli noan’anaviy metod va inetrfaol usullaridan foydalanish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boboyeva M.N. Matematika darslarida innovatsion texnologiyalar. Science and Education. 2:11 (2021), 883-892 betlar.
2. Boboyeva M.N. Maktablarda «matematika» fanini o‘qitish va uni takomillashtirish istiqbollari. Science and Education. 2:8 (2021), 486-495 betlar.
3. Курбонов Г.Г., Суюндукова А.А. Особенности обучения по курсу «Математика» в начальной школе. Science and education. 2:2 (2021), Pp. 727-735.
4. Hodjiyev S., Juraeva N.O. Methodical recommendations on solving text problems during the work. XII, 2021. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. Pp. 31-36.
5. Расулов Т.Х., Расулов Х.Р. (2021). Ўзгариши чегараланган функциялар бўлимини ўқитишга доир методик тавсиялар. Scientific progress. 2:1, 559-567 бетлар.
6. Rasulov, H. (2021). «Kompleks analiz» fanida mustaqil ta’limni tashkil qilish. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 5(5),
7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari, Toshkent, 2006. 163-bet.
8. Internet manba: [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz).